

PAPER

KONSTANTIN I DAVRIDA RIM IMPERIYASIDA Xristianlik dinining yoylishi

Rustamjonova Firuza Dilmurod qizi^{1,*}

¹Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti tarixiy yo'nalishi 101- guruh talabasi

*rustamjonova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Rim imperiyasida xristianlikning tarqalishi va imperator Konstantining faoliyati va milodiy III-IV asrlarda Rim imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar yoritilgan. Rimni qanday qilib paganizmdan xristianlikga o'tishi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tilgan.

Key words: Rim, xristianlik, Nikeya, Milan, sobor, imperator, imperiya, ruhoni, din.

Kirish

Qadimdan qudratli va o'ziga yarasha madaniyatga ega bo'lgan Rim I asrda yangi bir din, ya'ni xristianlikni, qabul qilishga majbur bo'lgan. Bu davrda Rim sultanatida har tomonlama inqiroz boshlanayotgan edi. Buning ustiga xristianlikning ham yoylishi shu davrga to'g'ri keldi. Yangi dinga xalqning barcha qatlamlari ergashadi. Rim hukumati qancha kuch bilan qo'zg'alolarni bostirishga harakat qilmasin baribir ma'lum bir natijaga olib kelmaydi. Keyinchalik hatto imperatorning o'zi ham yangi e'tiqodni qabul qilishga majbur bo'ladi.

Konstantin I milodiy (272-337-yil) Rim imperatori bo'lib, u davlatni birlashtirish va barqarorlikni ta'minlashda ko'plab islohotlar amalga oshirgan. Uning eng muhim islohotlaridan biri Rimda xristianlik dinining tan olinishi bo'ldi. Bu davrda Rimda ko'plab dinlarga e'tiqod qilishgan, lekin xristianlik dinini qabul qilgan shaxslar davlat tomonidan qattiq ta'ziq ostiga olingan. Dialektian davridagi quvg'inlardan so'ng Konstantin I davrida dinlar erkinligi borasida ijobji o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrda Konstantin Milanda imperator Litsiniy bilan birgalikda xristianlikka diniga nisbatan diniy erkinlik beruvchi farmonini e'lon qiladi. Bu bilan xristianlarga erkin ibodat qilish huquqi beriladi. Bu farmon tarixga "Milan" farmoni nomi bilan saqlanib qoladi. Bu farmon milodiy 313-yilda qabul qilinadi. U xristianlik dinini qonuniylashtirdi, shu bilan birga uni imperiyaning asosiy tayanchiga aylandi. Milanda qabul qilingan qonum bo'yicha bu farmon orqali ko'plab xristian diniga e'tiqod qiluvchilar uchun ko'plab shart -sharoitlar yaratildi.

Bu farmon orqali ularga xristianlarga erkin ibodat qilish

huquqi berildi. Cherkovlar qayta ochildi. Avval musodara qilingan cherkov mulklari qaytarib berildi. Konstantin o'z siyosati orqali xristian cherkovlarini davlat siyosatini ajralmas bir qismi deb e'lon qiladi. Cherkovlarni qurdirish (masalan, Quddusdagi

"Muqaddas qabr" cherkovi) Xristian ruhoniylariga moddiy yordam ko'rsatish, cherkov qonunlarini davlat qonunlariga yaqinlashtirish, Konstantin 325-yilda Nikeya soborini chaqiradi. Bu tarixdagi birinchi umumiy xristian sobori bo'ldi. Bunga asosan eng muhim masalalar ko'rib chiqildi. Iso Masihning ilohiy tabiatni Budparastlikdan xristian diniga o'tish, Nikeya iymon e'tiqodi asoslari belgilab berildi. Konstantin davrida xristian diniga juda ishonch bilan qaraldi. Uning davrida xristianlik nafaqat qonuniga denga aylandi, balki jamiyatning axloqiy madaniy ziysiga aylandi. Konstantin asos solgan yo'l keyinchalik imperator Feodisiy tomonidan yakunlanib xristianlik davlat dini maqomiga ko'tarildi. Konstantin amalga oshirgan ushbu islohotlar juda katta rol o'ynadi. U tomonidan xristianlikning targ'ib qilinishi ko'plab mansabdor shaxslarning qarshiligiga uchradi.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining shaxri qismida Falastin yerlarida vujudga keladi. Iso Masih (Bibliyaning xabar berishicha, bunga ko'ra xristianlik dinining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topgan 747-yilli Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keladi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Eramizning boshlarida Falastin xalqi turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlangan edi. Xristianlikning asosiy g'oyasi- Iso odamzotning xaloskorii ekanligi, oxiratga yaqin kelishi kutilayotganligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqqan. Diniy tabaqalar tuzumining vujudga

kelishi milodiy IV asr boshlarida 324-yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinadi. 325-yilda tarixda birinchi marta Rim imperatori Linsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirishda va ularni tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida Butun olam xristian saborini chaqirdi. 384- yilda Konstantinopolda II butun olam xristian saborini chaqirdi. Bu borada xristianlik ta'limotining asoslari qabul qilindi va bu asoslar 12 qismidan iborat. Konstantin hukmronligi davrida siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida diniy birdamlilikni yaratish va yagona ideologiya asosida imperiya mustahkamlashuvini maqsad qiladi. Xristianlik dini unga kuchli g'oyaviy asos bo'lib hizmat qiladi va unga turli ishlarni bajarish imkonini beradi.

Konstantin xristianlikni to'liq qabul qilmagan bo'lsa ham, u bu dinga chuqur hurmat bilan qarar edi. Masalan, diniy belgilarni, xochni armiyada ishlatishga ruxsat berdi. O'zini "Xudoning tanlagan shohi" deb e'lon qildi. Olimidan oldin suvgaga cho'milib rasmiy ravishda xristianlikni qabul qildi. Uning diniy siyosiy shaxsiy e'tiqodi bilan birga imperiyaning siyosiy manfaatlariga hizmat qildi.

Konstantinopol hozirgi Istanbul va boshqa shaharlarda ko'plab ibodatxonalar barpo qildirdi. Konstantin xristian cherkovlarini qurilishi va ta'mirlanishiga juda katta e'tibor qaratadi. Cherkovlarga katta yer mulklar va imtiyozlar beradi. Nikeyada chaqirilgan soborda xristianlikdagi bo'linishlar muhokama qilindi. Bu sobor Konstantinining diniy birlikni saqlashga qaratilgan siyosatining yorqin namunasi edi. Konstantin imperiyaning yangi poytaxti sifatida Konstantinopol shahrini barpo etdi. Bu shahar xristianlikning muhim markaziga aylandi. Ko'plab ibodatxonalar va diniy maktablar qurildi. Bu shahar keyinchalik Vizantiya imperiyasi yuragi sifatida xristianlikni saqlab qolishda muhim rol o'yнagan. Konstantin Buyuk unvoniga munosib bo'lди.

Konstantin hokimiyatga to'liq egalik qilish uchun uzoq muddat kurash olib borgan. Eng muhim janglardan biri bu – Milirus ko'prigidagi jang (312-yil) bo'lib u bu jangda raqibini Matentini yengadi. Tarixchilarining yozishchicha, bu jangdan oldin Konstantin osmonda bu belgi bilan g'alaba qilasan, degan yozuvni va xoch belgisini ko'radi. Bu ilohiy ko'rinish Konstantinni hayratga solgan va u jangda askarlar qalqonlariga Xristian xoch belgisi chizdirgan. G'alabadan so'ng, u bu belgini o'zining himoyachisi deb hisoblay boshlagan. Konstantin xristianlikni targ'ib qilish orqali imperiyaning ideologiyi birlashtirishni ko'zlagan edi.

Har xil diniy urf odatlar orniga yagona asosiy mezonlarni yaratmoqchi bo'lgan. Xristianlik orqali markazlashgan hokimiyatni mustahkamlashga erishgan. Uning qarorlarida faqatgina din emas, balki chuqur siyosiy manfaatlar ham o'rın tutgan. Konstantin va uning onasi Yelena va uning xristianlik diniga qo'shgan o'rni beqiyos bo'ldi. Konstantinining onasi Yelena Quddusga ziyyorat qilgan va Iso alayhisallomning xochi topilgan joyni aniqlagan. Quddusdagi "Muqaddas qabr" cherkovini qurdirishga sababchi bo'lgan. Yelena nasroniyalar orasida muqaddas ayol va turli sifatlar bilan e'tirof etilgan. Konstantin hukmronligi davrida ko'plab qonunlar din asosida chiqarilgan. Jinoyatchilarga qattiq jazo orniga kechirim imkoniyati berildi. Qulchilikga qarshi yumshatish siyosati olib borildi. Xristian dini Rim jamiyatining ijtimoiy muhitiga katta ta'sir ko'rsatdi. Konstantin Vizantiya shahrini poytaxt qilganida Xristianlik asosida yangicha bir siyosiy markaz tuzish sifatida qaradi. Bu shahar keyinchalik 1000 yil davomida Xristianlik dinining yuragi bo'lib keldi.

Konstantinining o'limidan so'ng, uning vorislari tomonidan bu siyosat davom ettirildi. 380- yilda imperator Feodosiy I xristianlikni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi. Cherkov kuchayib Rim papasi ta'siri kuchaydi. Endi har bir masalalarda din asosiy ro'l o'ynay boshladи. Xristianlikning tez tarqalishi sababi, nafaqat o'z davridagi barcha asosiy diniy g'oyalarni muvaffaqiyatli birlashtira olganida. Eramizning I asri oxri II asr boshlarida Isonni e'tirof

qiluvchilar soni ko'p bolgan. Ularning diniy taassurotlari bir-biridan kam farq qilgan. Rim imperiyasida siyosiy vaziyatning keskinlashishi diniy najotga intilishni keskinlashtirgan. Zamon o'tishi bilan katta jamoalarda alohida xo'jalik paydo bo'la boshlaydi. Jamoalarning moddiy ahvoli ham o'zgardi. Eramizning boshlarida jamoalarning mablag'i to'ldirib turuvchi birdan bir manba beradigan badallar bo'lib qoldi.

Har bir xristian jamoasida a'zolar soni ko'payib bunday jamoalar Rim imperiyasining G'arbiy viloyatlarida (Galliya, Ispaniya, Afrikada) ham paydo bo'la boshlagan sari xristianlarni jamoalash hollari ko'paygan III asr boshlarida Kiprian shunday munozarali asarlar chiqargan. Xristian cherkovining keyingi rivoyatlariga ko'ra, imperiya hokimlarining xristianlarni taqib qilishi Neron davridan boshlangan. Bunda juda ko'p Xristian Rimga o't qo'yishda (mil avv. 64-yil) ayblangan va qatl qilingan.

"Ammo sovet tadqiqotchilarining manbalarni tahlil qilib o'rganishi shunday xulosaga olib keladiki, eramizning 3-asri o'rtalarigacha Rim imperiyasi hukumati xristianlarga nisbatan diniy e'tiqodlari uchun ongli ravishda tashkiliy qirg'in in uysitirmagan, ungacha xristian dinidagi ayrim shaxslar chaqimchiligi va xristianlarning o'zlarini buyruqlari va fikrlari natijasida yuz bergan. U o'zini "Xudo tomonidan tanlangan shoh" sifatida targ'ib qilgan. Rimdagagi ko'p asrlik senat tomonidan tayinlanish an'anasi asta sekin yo'qolib buning o'rnni Xudo irodasiga tayanuvchi hokimiyat egallaydi. Bu esa xristianlikni faqat din emas, balki imperatorlikni asoslovchi mafkuraga aylantirdi.

Konstantin xristianlikni targ'ib qilgan bo'lsa-da, imperiyadagi boshqa dinlarga nisbatan ham bosqichma-bosqich siyosat yuritgan. Masalan, budparastlikni, ibodatxonalarini birdan yopib yubormagan, balki ularni asta-sekin moliyaviy va siyosiy qo'llab-quvvatlagan. Barcha viloyatlarga mahalliy butlarga sig'inishga ruxsat bergen, lekin rasmiy darajada targ'ib qilmagan. U ruxsat etilgan din tushunchasini amaliyatga joriy qildi. Oldin xristianlikni diniy jinoyat sifatida ko'rigan bo'lsa, Konstantin uni qonuniylashtirdi va boshqalarga ham o'z e'tiqodida bo'lish huquqini berdi. Konstantin nafaqat cherkovlar, balki diniy infratuzilmalar, diniy boshqaruv muassasalarini ham yo'lg'a qo'yan. Bu esa cherkovni mustaqil tashkilotchilikka ega tizimga aylantirgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, imperator Konstantin xristian dinini nafaqat qonuniylashtirdi va uni rivojlantirishda katta xizmat ko'rsatdi. U xristianlik dinini davlat siyosati darajasiga olib chiqdi va din orqali imperiyada tinchlik o'rnatdi. Men ushbu mavzu orqali din siyosat bilan bog'liq ekanligini, shuningdek, jahon tarixida Konstantinining o'rni naqdadar kuchli ekanligini tushundim. Ayniqsa, Milan va Nikeya sobori Konstantinopol shahrining qurilishi juda katta ro'l o'ynaydi. U xristian dini uchun yangi qonunlar va cherkovlar tashkil qildirdi. Bundan maqsad xristian dinini ommagga targ'ib qilish. U yangi din orqali o'z hokimiyatini mustahkam qilib oldi.

Imperator o'zini Xudo tanlagan hukmdor sifatida e'lon qilishi jarayoning asosiy bosqichi hisoblanadi. U xristianlik dinini keng tarqalishi, tarixiy rivojlanishi uchun keng zamin yaratadi. Konstantin I ni xristianlikni qonuniylashtirish va rivojlantirishda o'rni juda beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.И Ковоив: "История Рима Ленинград" 1980-год
2. О'зМе Birnchi jild Toshkent 2000-yil
3. Karimov A B To'laganov A: Jahon tarixi 2016

4. Egamberdiyev M (2019): Qadimgi Rim tarixi
5. Гумилёв.Л.Н. (2002) древни цивилизации мира
6. История древнего мира А.В (2005)